

## BOLALAR SHAXSIY RIVOJLANISHIDA MILLIY O'YINLARNING PEDAGOGIK IMKONİYATLARI VA TA'SIR MEXANIZMLARI

**Davlatova Saidaxon Tojimuxammadovna**

*Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

#### MAQOLA TARIXI:

*Received: 30.08.2025*

*Revised: 31.08.2025*

*Accepted: 01.09.2025*

#### KALIT SO'ZLAR:

milliy o'yinlar,  
tarbiya, boshlang'ich  
ta'lim, xalq  
pedagogikasi, Mahmud  
Qoshg'ariy, ijodkorlik.

*Maqolada o'zbek xalq milliy o'yinlarining tarixiy ildizlari, ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni hamda tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Har bir millat singari o'zbek xalqining ham turli hududlarga xos, yosh va jinsiy xususiyatlarga qarab farqlanuvchi o'yinlari mavjudligi ta'kidlanadi. Tadqiqotda milliy o'yinlarning kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda, ularning ijodkorligini rivojlantirishda, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lishi isbotlangan. Shuningdek, maqolada qadimiy pedagogik fikrlar, miniaturalardagi tasvirlar va Mahmud Qoshg'ariyning "Devonulug'otit-turk" asaridagi o'yinlarga oid ma'lumotlar asosida o'zbek xalq o'yinlarining tarixiy jarayondagi uzviyligi tahlil etilgan. Muallifning fikricha, o'yin faqat ermak emas, balki shaxsni shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy omildir.*

Har bir millat o'ziga xos milliy o'yinlariga ega. O'zbek xalqi ham bundan mustasno emas. Xalq bag'rida minglab hammaga ma'lum o'yinlar bilan bir qatorda, ayrim mintaqalarga xos o'yinlar ham bo'lgan. Ba'zan bir qishloq o'yinlari qo'shni qishloq o'yinlaridan farq qilgan. Bulardan tashqari o'zbek xalqining an'analari orasida turli yoshdagilar, turli jinsdagilar, yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi ham

bo'lgan. O'zbek xalqi o'yinlari orasida boshqotirma so'z, qo'shiq, raqs – o'yinlar, voqeband kabi harakatli o'yin turlari mashhur bo'lgan. Shuningdek xalq hayotida to'y – bayram – o'yinlar, jamoalar ishtirokidagi o'yinlarining ham o'ziga xos o'rni bor.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalashning muhim omillaridan biri shakli va mazmuni har xil, shuningdek turli yo'sinda o'tkaziladigan aqliy, xarakterli, milliy xalq o'yinlaridir<sup>150</sup>. Shuning uchun umuman, maktabda, xususan kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishda mazkur o'yinlarning imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e'tibor berish zarur. Ya'ni boshqacha qilib aytganimizda o'yinga tarbiyaning bir shakli, quyi sinfdagi tarbiyaviy vazifalarni hal qilishning muhim vositasi deb qarash kerak. O'yin bolaning faoliyati sifatida o'z qonuniyati bo'yicha rivojlanadi. Undan pedagogik mashqlardan ko'p yoki kam foydalanish ana shu qonuniyatni qanchalik o'rganilganligiga va o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Mana shu sohada izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchi pedagog – olimlarimiz bolalar o'yini hayot-sharoiti va tarbiyaning ta'sirisiz, o'zidan – o'zi rivojlangan instiktiv faoliyat emasligini, balki kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy faoliyat bo'lib, ijtimoiy tarbiyani o'zlashtirishning bir shakli, shuningdek, atrofdagi kattalar ta'siri ostida rivojlanishni yaqqol isbotlaydilar. Shuning uchun ham bolalar o'yinidan ularni tarbiyalashda keng foydalanish, mazmunan va shaklan har xil o'yinlarni mustahkam ravishda o'tkazib borishga alohida e'tibor bilan qarash kerak.

Harakatli, rasmlil hamda qurish-yasashga doir o'yinlar tarbiyaviy jarayonda alohida o'rin tutadi. Pedagogik nuqtai nazardan bu o'yinlar bolaning bilish faoliyatini faollashtirish, harakatini uyg'unlashtirish, uning xatti-harakati va xulq-atvorini shakllantirishda juda muhim vosita hisoblanadi. Ayrim pedagogik qarashlarda o'yinlar tarbiyaning mustaqil shakli sifatida baholanib, ular orqali bolaning shaxsiy tajribasi, qiziqishlari va imkoniyatlari namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Mening fikrimcha bola turli ishtiyoq va ehtiyojlarga ega bo'lib, u ana shu ehtiyojlarini qondirishida o'yinning o'rni beqiyosdir. Faqat o'yinga vaqt ajratishning o'zi yetarli yetarli bo'libgina qolmasdan, uni mazmun jihatdan to'g'ri yo'naltirish hamda tarbiyaviy maqsad bilan uyg'unlashtirish zarur. Mazmunan boy va maqsadli o'yinlar bolaning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu tomondan olib qaraydigan bo'lsak o'yinlarni tarbiya vositasi deb emas, balki tarbiyaning samarali shakli sifatida ham qaralishi mumkin.

<sup>150</sup> Мардонова Гулжаҳон Амоновна Ўзбек миллий ўйинлари [Матн]: Оммабоп-адабий нашр / Г.А.Мардонова. – Тошкент: Bookmany print, 2022

O'yinlar bilan bolaning butun hayotini mazmundor qilish kerak. Kuni uzaytirilgan guruhlardagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishda didaktik harakatli, mazmunli – rasmi o'yinlar mo'ljallanar ekan, o'zbek milliy xalq o'yinlariga alohida e'tibor berish lozim. Chunki, bu o'yinlarning asosiy vazifasi o'z mazmuni va metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq yo'sinda tarbiyalashni ta'minlash, ularni axloqiy, irodaviy sifatlarni rivojlantirish ijodkor va bunyodkorlarga xos bilim ko'nikma hamda malakalarini, vatanparvarlik sifatlariga xos fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir<sup>151</sup>.

Qadimiy tarbiya sistemasida o'yinlardan shaxsni shakllantirish vositasi sifatida keng foydalanilgan. Juda uzoq davrlar muqaddam pedagogik fikr namoyondalari o'yinning tarbiyaviy imkoniyatlarini g'oyat ziyraklik bilan fahmlashgan. Ular har qanday vaziyatga nisbatan o'yin vaqtida bolalarning fe'l – atvorini tezroq bilib olish, ularning salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash, bema'ni qiliqlarini bartaraf etishning yaxshiroq choralarini qo'llash mumkin deb hisoblashgan. Shuning uchun o'sha paytlardan oq bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos o'yinlarni tanlash masalasi qo'yilgan. Bolani o'zining yoshiga muvofiq ishlar va turli o'yinlar bilan mashg'ul qilish zarur deb topilgan. Pedagoglar zimmasiga shunday o'yinlarni tanlash vazifasi yuklangan.

Bulardan aniqlanadiki, o'tmishda o'zbek xalqi yosh avlodni tarbiyalash uchun turli o'yinlarni yaratgan va qo'llagan. Bu o'yinlar ermak dam olish vositasi bo'libgina qolmay, balki bolalarni ziyraklikka, topag'onlikka, mehribonlikka o'rgatishda, umuman ularni yuksak axloqiy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda muhim qurol sifatida ham yordam bergan.

Mavjud tarixiy manbalarga masalan, o'rta asrlarda chizilgan miniaturalarga murojaat qilsak, o'sha davrda ham O'rta Osiyo xalqlari xilma – xil o'yinlar va musobaqalarda qatnashganligining guvohi bo'lamiz. Kurash, chavondozlik, ot ustida kurash, chavgon o'ynash, kamondan otish bo'yicha merganlik, shatranj, nard va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbeklar va ular bilan birga yashagan xalqlarning milliy o'yinlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar bizgacha XI asrda yashagan buyuk lingvist tarixchi olim Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit – turk” asari orqali yetib keldi. Kitob muallifi O'rta Osiyo hududida yashagan qabilalar va xalqlarning tillariga, ayrim so'zlariga izohlar berar ekan, kishilarning mashg'ulotlarini, xatto bolalarning o'yinlarini ham tilga oladi, ularning qoidalarini ta'riflaydi. Asarda juda ko'p o'yinlar ifodalangan va ulardan biri “Mo'nguz - mo'nguz” o'yinidir. Bu o'yinda bolalar dengiz labida tiz cho'kib o'tiradilar, sonlari orasiga

<sup>151</sup> Eshonqulova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun milliy va harakatli o'yinlar // Scientific Journal Impact Factor. – 2024. URL: <https://scientific-jl.com/tad/article/view/9857>

xo'l qum solib to'ldiradilar. So'ng qo'llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri "mo'nguz - mo'nguz" deb so'raydilar va birin - ketin shoxli hayvonlarni sanab keltiradilar. Uning ketidan boshqalar ham takrorlaydilar. Ona boshi shu nomlar orasiga tuya, eshak kabi shoxi yo'q hayvonlarning nomini ham aytib chalg'itadi. Bolalardan bittasi uning ketidan shoxsiz hayvonning nomini aytib yuborsa, uni suvga itarib yuborishadilar<sup>152</sup>.

O'yinlar mazmuni va tashkil qilinishiga ko'ra:

-Xalq milliy harakatli o'yinlari;

-ijodiy o'yinlar;

-ermak, ovutmachiq o'yinlar;

-sanamalar kabi o'yin turlariga ajratiladi. Bu o'yin turlari ham o'z navbatida yana kichik - kichik guruhlariga bo'linib ketadi. Masalan ijodiy o'yinlarni mazmuni va syujetiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Maishiy o'yinlar.

2. Mehnat mavzusidagi o'yinlar.

3. Ijtimoiy o'yinlar.

O'zbek xalqi kishilarning jismonan baquvvat, sog'lom, epchil bo'lishiga alohida e'tibor bergan. Zeroki sog'lom kishilar hayot sinovlaridan yaxshi o'tib yashaydilar. "Badan tarbiyasi, badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonlarga eng kerakli narsadir. Chunki, o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq, o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Badantarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom vujud kerakdur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon hulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabidur."<sup>153</sup>, - degan edi atoqli pedagogimiz A. Avloniy.

Qator xalq o'yinlari oddiy jismoniy harakatdan iborat bo'lmay, balki bolalarning dunyoqarashlarining shakllanishi uchun ham xizmat qiladi. Buni ularning cho'pchak aytish musobaqalarida, ertak qahramonlarini topishlarida, raqslarga tushishlarida, ayrim hayvonlar, parrandalar rolini ijro etishlarida, mushuk - sichqon, xo'roz - xo'roz kabi o'yinlarida turli hayvonlarning qiliqlarini bajarishlarida ko'rish mumkin. Misol uchun "Qushim boshi" o'yinini olaylik. Bu o'yin o'zbeklar yurtining turli hududlarida har xil atalsa-da, ular mazmunan bir xildir. O'yinda boshqaruvchi bolalarga qarab: "Qushim boshi muncha, tanamanasi bilan shuncha", deb bir qushning qiyofasini ko'p harakatlari bilan tasvirlab

<sup>152</sup> Mahmud Qoshg'ariy. *Devonu lug'otit turk*. 3 tomlik. - Toshkent: Fan, 1960-1963.

<sup>153</sup> Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. - Toshkent, 1913.

beradi. Bolalar bu qushni ko'z oldilariga keltirishga harakat qiladilar, shundan so'ng o'z bilganlarini aytadilar:

- Chumchuq
- Yo'q?
- Kabutar!
- Ha, topding bir bolani tanla!

Bir bolani tanlaydi va "Sen yutding berkinglar!" – deydi.

Bularning hammasi bolalarning fikrlashi, rivojlanishiga, so'z boyligini oshirishga, panja muskullarining harakatchanligi oshishiga imkon tug'diradi.

Bolalar o'yinlarida kattalarning xulqi, odatlari, mehnatini aks ettirishlari bilan birga, atrofdagi kattalar ta'siri ostida rivojlanishlarini yaqqol isbotlaydilar. Shuning uchun ham bolalar o'yinlaridan ularni tarbiyalashda keng foydalanish lozimligini o'rgatadi. O'zbek xalq o'yinlari bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu o'yinlar o'g'il va qizlarni hushyorlikka, epchillikka o'rgatadi va ularning aql – zakovatini o'stiradi.

O'yinni tashkil etishdan oldin unga kerakli buyumlarni tayyorlab qo'yish lozim. Odatda xalq o'yinlarini ochiq havoda, sport soatlarida tarbiyachining bevosita rahbarligida o'tkazish mumkin. O'yinni o'quvchilarga sodda qiziqarli yo'sinda tushuntirib, ularning o'yinga ishtiyoqlarini oshirib borish zarur. Tarbiyachining vaqti – vaqtida o'yinga aralashuvi bolalarning o'yinga qiziqishini yanada oshiradi. Ma'lumki, o'yin insonning shakllanishida va yosh bolaning rivojlanishida o'ta muhim o'rin tutadi. O'yinga ehtiyoj, qiziqish bola tabiatida bor. Bolaning birinchi faoliyati o'yin bilan boshlanadi. Bola hayotini avvaliga o'yin bilan o'rganadi, his qiladi, tushunishga harakat qiladi, o'yin yordamida katta hayotga tayyorgarlik ko'radi.

Har bir yoshga xos o'yinlar bor. Turli yoshlarga oid fe'l atvor, fazilatlar o'yin shakli va mazmunini belgilab beradi. Masalan, chaqaloq yig'lamasligi uchun unga ovunchoq beriladi. Va uni ovutadigan o'yinlarga jalb etiladi. Undan so'ng bola go'dak davrida – manipulasion o'yinni hush ko'radigan bo'lib qoladi. Undan so'ng bolalar taqlid qilish va suyujetli o'yinlarga, ya'ni "uy - uy", "ish – ish" kabi o'yinlarga talabgor bo'lishadi. Shu yoshdagi qizlar orasida "xola -xola", "bola boqish", "mehnat qilish" va hakoza o'yinlarni o'ynash rivojlangan bo'ladi. Bu o'yinlar bolalarda hayotiy mashq vazifalarini o'taydi. O'smirlar va yoshlar orasida harakatli o'yinlar: "Bekinmachoq", "Chillak", "Oq terakmu – ko'k terak", "Do'ppi ketdi", "Podachi", "Yong'oq o'yini" kabilar keng tarqalgan bo'ladi<sup>154</sup>.

<sup>154</sup> Qilichova, M. X., & To'lanova, F. T. (2020). *O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi* [Elektron resurs].

Bolalar va o'smirlar hayotida o'yinlarning o'rnini juda katta. Ayniqsa 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'yin asosiy mashg'ulot hisoblanadi. Keyinchalik o'yinlar o'rnini asta sekin o'qish va yozish, mehnat qilish egallab boradi.

O'yinlar bolalar uchun "Hayotga tayyorlanish maktabi" ularning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga ta'sir etadi. O'yin bola ongi, tafakkurini o'stirib, xotira, diqqat, iroda sini mustaxkamlaydi., jismoniy, ruhiy, hissiy taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shuningdek o'yin bolani katta hayotga tayyorlashda mashq vazifasini bajarib, kelajakda hayotda duch keladigan turli xil xolatlarga ma'naviy tayyorlaydi. "Agar bola o'yinda halol o'ynasa, keyinchalik hayotda ham halol bo'ladi", yoki "Bolaning o'yindagi harakatiga qarab, uni qanday odam bo'lishini aytish mumkin", degan maqollar bekorga aytilmagan<sup>155</sup>.

Qisqa qilib aytganda, o'yin bolalarda ijodiy faollik va boshqa ko'nikmalarni shakllantiradi. O'yinlar tufayli bolalarda ularni o'rab turgan dunyoni tushunish va unga ta'sir qilish ehtiyoji shakllanadi. Aqliy – axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari shakllanadi. O'yin yordamida bola shakllanadi, tarbiyalanadi va shaxsi shakllanadi.

Xalq faoliyatida minglab rang – barang o'yinlar mavjud bo'lib, ular ming yillar ichida boyib borgan va ajdodlarimizning ma'naviy va jismoniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ko'p asrlar davomida xalq o'yinlari avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan. Ular kelajak avlodimiz bo'lmish bolalarni aqliy – ruhiy va jismoniy barkamol bo'lib yetishida xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qilichova, M. X., & To'lanova, F. T. (2020). *O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi* [Electronic resource].
2. In Mahmud Qoshg'ariy, *Devonu lug'otit turk* (Vols. 1–3). Toshkent: Fan. (Original work published 1960–1963).
3. Avloniy, A. (1913). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent.
4. Eshonqulova, M. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun milliy va harakatli o'yinlar. *Scientific Journal Impact Factor*. Retrieved from <https://scientific-jl.com/tad/article/view/9857>
5. Davlatova, S. T. (2025, June). Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari: *Xalq o'yinlari – ma'naviyat manbai va tarbiya maktabi. 44-to'plam, 2-qism* (358-363)

<sup>155</sup> Qilichova, M. X., & To'lanova, F. T. (2020). *O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi* [Elektron resurs].

6. Vygotsky, L.S. Play and its Role in the Mental Development of the Child. Soviet Psychology, 1978.

7. Abduqodirov, R. O'zbek xalq o'yinlari: tarixi va pedagogik ahamiyati. Toshkent: Ma'naviyat, 2019. Tandfonline (Cambridge Core) nashr qilingan maqola:

8. Davlatova, S. T. qizi Abdullayeva, FS (2023). Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ota-onalarning qarashlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 819-823.

9. Tojimukhammadovna, D. S. (2025). Pedagogical Foundations of Developing Students' Professional Competencies in Club Classes. International Journal of Pedagogics, 5(04), 141-145.

Абдурахимова Д.А. “Халқ оғзаки ижоди- маънавий тарбия воситаси” .Ўқув қўлланма.Тошкен

